NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.22.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TILLABAYEVA FERUZAXON ABDULAZIZOVNA

O‘ZBEK VA RUS XALQ TOPISHMOQLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UO‘K: 811.512.133'25:398.61(=512.133)+811.161.1'25:398.61(=161.1)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of the Dissertation Abstract for the Degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Tillabayeva Feruzaxon Abdulazizovna
O‘zbek va rus xalq topishmoqlarining qiyosiy-tipologik tahlili..... 3

Тиллабаева Ферузахон Абдулазизовна
Сравнительно-типологический анализ узбекских и русских народных загадок. 25

Tillabayeva Feruzakhon Abdulazizovna
Comparative-typological Analysis of Uzbek and Russian Folk Riddles 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……..... 55

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.22.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TILLABAYEVA FERUZAXON ABDULAZIZOVNA

O‘ZBEK VA RUS XALQ TOPISHMOQLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil1887 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat universitetining veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mirzayeva Salima Raimjanovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Palimbetov Kamalbay Sarsenbayevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yilning «__ _» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 160107 Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 2288502; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107 Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 2288502; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__ __ » _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil «____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

V. A. Vositov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I. U. Tojiboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. A. Sidiqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida, xususan, folklorshunoslik sohasida janrlar tipologiyasi va paradigmatikasi ularning universal kognitiv tabiati, strukturaviy invariant modellari hamda lingvokulturologik xususiyatlari asosida qiyosiy-tizimli yondashuv bilan o‘rganilmoqda. Mavjud ilmiy izlanishlarda o‘zbek va rus xalq topishmoqlarining qiyosiy-tipologik tabiati, ularning poetik modellaridagi mushtarak va differensial jihatlar, mifologik asoslari, lingvokulturologik xususiyatlari hamda ramziy obrazlar tizimi kompleks holda maxsus tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ikki xalq topishmoqlarida xalqona tafakkurning tarixiy-genetik ildizlari, milliy-madaniy konseptlarning poetik ifodasi hamda janrning kognitiv-pragmatik imkoniyatlari tizimli ravishda yoritilmagan. Jahon adabiyotshunosligi, xususan, folklorshunoslik rivoji uchun o‘zbek va rus topishmoqlarini qiyosiy-tipologik o‘rganish, ularning universal, milliy va etnomadaniy xususiyatlarini aniqlash dolzarbdir.

Dunyoda folklor janrlarini qiyosiy-tipologik tadqiq etishning tarixiy taraqqiyoti syujetlarning genetik kelib chiqishini aniqlashdan folklor janrlari rivojlanishining tipologik, strukturaviy, funksional va madaniy aspektlarini har tomonlama o‘rganishga o‘tishni aks ettiradi. Jumladan, xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, urf-odatlari va estetik tafakkurining ifodasi bo‘lgan topishmoqlar ham mazkur tadqiqotlar sirasidan joy olgan. Mazkur tadqiqotlarda topishmoqlarning insonning koinot, tabiat, hayot va jamiyat haqidagi tasavvurlarini badiiy kodlar orqali ifodalashi, shuningdek, ularning strukturaviy, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish ustuvor yo‘nalish sifatida shakllangan. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek va rus xalq topishmoqlarining poetikasi, semantikasi va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki lingvokulturologiya, chog‘ishtirma tilshunoslik, paremiologiya va tarjimashunoslik rivoji uchun ham muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so‘ng xalq og‘zaki ijodini, milliy-madaniy, adabiy qadriyatlarimizni keng ko‘lamda o‘rganishga, folklorga xos an’anaviy va ommaviy janrlar tabiatini, ifoda tarzi, tasvir imkoniyatlarini chuqurroq tadqiq qilishga alohida e’tibor berila boshlandi. “Ilmni, tarbiyani to‘g‘ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi”[1]. Ushbu konsepsiya o‘zbek folklorshunosligi oldiga ham hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘yadi. Mazkur vazifadan kelib chiqib, iqtidorli yoshlar orasidan malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni aniqlab, o‘zbek folklori janrlarini, jumladan, topishmoqlarni to‘plash, chop etish va turli tillardagi namunalarini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, yoshlar orasida kitobxonlik va chet tillarini o‘rganishga qiziqishni kuchaytirish ushbu dissertatsiya tadqiqotining zaruriyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Миллий университетида олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари раҳбарлари, академиклар, олимлар, ёш тадқиқотчилар билан учрашувидаги нутқидан // Халқ сўзи, 2019 йил, 26 май.

2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon folklorshunosligida topishmoqlarning genezisi, janr xususiyatlari hamda poetikasini o‘rganishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Edward Burnett Tylor (1832–1917) ibtidoiy madaniyat va mifologik tafakkur doirasida topishmoqlarning kelib chiqishini izohlaydi[2]. Britaniyalik olim James George Frazer (1854–1941) esa marosimlar va mifologik dunyoqarash kontekstida folklor janrlarining, jumladan, topishmoqlarning ildizlarini tahlil etgan[3]. Fin filologi va folklorshunosi Antti Aarne (1897–1925) topishmoqlarni qiyosiy-tipologik metod asosida o‘rganib, ularning xalqaro miqyosda tarqalgan turlarini tizimlashtirgan[4]. Vankuver universiteti (Kanada) professori Elli Köngäs-Maranda (1932-1982) fin xalq topishmoqlari materiallari asosida emotsional, individual va informativ topishmoqlar tasnifini taklif etgan[5].

Rus folklorshunosligida Y. M. Lotman, Y. M. Meletinskiy, V. N. Toporov, G. L. Permyakov, A. N. Jurinskiy, T. M. Nikolayeva, S. Y. Senderovich tadqiqotlarida topishmoqlar genezisi, strukturasi, semiotikasi, lingvopoetik xususiyatlari, topishmoq matnlarining lingvistik modellari, metaforik nutq tipining asosiy shakllari va vositalari, mif va topishmoq munosabati, topishmoq matnlarining lingvokulturologiyasi va tipologiyasi masalalariga e’tibor qaratilgan[6]. A. E. Kitikov,

[2] Тайлор Э. Б. Первобытная культура / Э. Б. Тайлор; пер. с англ.; предисл. и примеч. А. И. Першица. – М: Политиздат, 1989. – С. 36.

[3] Джеймс Джордж Фрэзер. Золотая ветвь: Исследование магии и религии: Т. 1: Пер. с англ. М. Рыклина. – М., ТЕРРА-Книжный клуб, 2001. – С. 165.

[4] Antti Aarne. Vergleichende Rätselforschungen. – Helsinki, 1918. – P. 2.

[5] Кенгэс Маранда Э. Логика загадок. В Паремиологический сборник: Пословица загадка (смысл, текст). – М., 1978. – С. 251.

[6] Лотман Ю. М. Избранные статьи. – Таллин, 1992. – С. 148; Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. – М., 1976. – С. 13; Топоров В. Н. Святость и святые в русской духовной культуре. Том I. – М., Гнозис; Языки русской культуры. 1995. – С. 7; Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. – М., 1988. – С. 165; Малые формы фольклора. Сборник статей памяти Г. Л. Пермякова. – М., 1995. – С. 134; Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Наука, 1970; Мелетинский Е. М. О литературных архетипах. – М.: Российский государственный университет, 1994; Елизаренкова Т. Я., Топоров В. Н. О ведийской загадке типа brahmodya

N. A. Lavonen, A. So‘fiyev, N. O. Sharakshinovalarning tadqiqotlarida esa topishmoq aytish bilan aloqador an’analar har bir xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari va voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari bilan bog‘liqligi masalasi yoritilgan[7].

O‘zbek xalq topishmoqlarining to‘planishi hamda ilmiy tadqiq etilishida Z. Husainova xizmatlari alohida ajralib turadi. Olima 1967-yilda o‘zbek xalq topishmoqlarining asosiy xususiyatlariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, unda topishmoqlarning janriy tabiati, badiiy xususiyatlari, mavzuiy turlarini ko‘rsatib bergan. Undan so‘ng bu boradagi salmoqli ilmiy tadqiqot M. Y. Jo‘rayevaga tegishli[8]. U o‘zbek xalq topishmoqlarining tarixiy asoslari, shakllanish tarixi, qadimgi mifologik tasavvurlar, so‘z tabusi bilan bog‘liq an’analar va metaforik nutqning topishmoqlarning yuzaga kelishidagi o‘rnini jiddiy tadqiq qildi.

Turkiy xalqlar noyob durdonasi hisoblangan, jahon adabiyoti rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilgan, XIV asrda yaratilgan adabiy yodgorliklarimizdan biri “Kodeks kumanikus”dir. “Kodeks kumanikus”ni tadqiq etish ishlari B. Jafarov tomonidan davom ettirilib, 2017-yili muvaffaqiyatli himoyaga erishildi. Undagi topishmoqlar turkiy topishmoqlarning yozma tarzda o‘z aksini topgan yirik guruhi ekanligi bilan ham juda katta ahamiyat kasb etadi[9].

M. N. Saitbayeva, J. X. Abdullayev va M. Saparniyazova topishmoqlarning leksik-semantik hamda sintaktik xususiyatlariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilgan bo‘lib, ularning tadqiqotlari mazkur janrning til birliklari va tuzilma xususiyatlarini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi[10]. D. Kuliyevaning 2024-yilda himoya qilingan “«Kodeks Kumanikus» topishmoqlari tarjimalarining qiyosiy tahlili va poetikasi” nomli dissertatsiyasi mazkur mavzu doirasidagi tadqiqotlarning zamonaviy bosqichini ifodalaydi. Unda «Kodeks Kumanikus» manbasida uchraydigan topishmoqlar turli tillarga qilingan tarjimalar asosida qiyosiy o‘rganilib, ularning semantik tuzilishi, obrazlilik xususiyatlari va poetik ifodasi tahlil qilingan[11].

// Паремиологические исследования. – М., 1984. – С. 14-46; Топоров В. Н. Из наблюдений над загадкой // Исследования в области балто-славянской духовной культуры. Загадка как текст. Т. 1. – М.: Индрик, 1994. – С. 10-117; Левин Ю. И. Семантическая структура загадки // Паремиологический сборник: пословица, загадка (структура, смысл, текст). – М.: Наука, 1978. – С. 282–314; Журинский А. Н. Семантическая структура загадки. – М.: Наука, 1989; Николаева Т. М. Загадка и пословица: социальные функции и грамматика // Исследования в области балто-славянской духовной культуры. Загадка как текст. 1. – М.: Индрик, 1994. – С. 214–225; Сендерович С. Я. Морфология загадки. – М., 2008.

[7] Китиков А. Е. Марийские народные загадки. – Йошкар-Ола, 1967. – С. 88-130; Левонен Н. А. Карельская народная загадка. – Л., Наука, 1997. – С. 44.; Шаракшинова Н. О. Бурятский фольклор. – Иркутск, Кн.изд-во, 1959. – С. 110.; Шаракшинова Н. О. Загадки. Учеб. пособие. – Иркутск, 1987. – С. 113.

[8] Жўраева М. Ю. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) ... дисс. автореф. 10.00.08 / Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти. – Тошкент, 2017– 50 б.

[9] Жафаров Б. С. «Кодекс куманикус» – туркий халқлар ёзма обидаси: Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) ... дисс. автореф. 10.00.10 / Тошкент давлат шарқшунослик институти. – Тошкент, 2017. – Б. 12.

[10] Саитбаева М. Н. Именное сказуемое в узбекских народных загадках: Автореф. дисс. … канд. филол. наук: 10.02.02. – Ташкент, 1984. – 55 с.; Абдуллаев Ж. А. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 20 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларида эганинг ифодаланиши / Туркий тиллар тараққиёти муаммолари. – Тошкент: ТДПИ, 1993. – Б. 68-70.

[11] Kuliyeva D. «Kodeks Kumanikus» topishmoqlari tarjimalarining qiyosiy tahlili va poetikasi: Filol. fan. b. fal. dokt. (PhD) ... diss. – Namangan, 2024. – 146 b.

Amaldagi ilmiy ishlanmalar ko‘pincha topishmoqlarni alohida milliy an’analar yoki tor nazariy yo‘nalishlar doirasida yoritish bilan cheklanadi, natijada ularni qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tizimli o‘rganish yetarli darajada shakllanmagan. Rus va o‘zbek folklorida topishmoqlarning kelib chiqishi, struktur-semantik tuzilishi, lingvopoetik ifoda vositalari hamda lingvokulturologik mazmuni o‘zaro qiyosiy tahlil asosida kompleks tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois, turli madaniy muhitlarda shakllangan topishmoqlarning umumiy va milliy xos belgilarini aniqlash, ularning metaforik tafakkur bilan bog‘liqligini ochib berish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik o‘zgarishlarni ilmiy asoslash zarurati saqlanib qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universitetining ilmiy ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek folklorini jahon folklori kontekstida o‘rganish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va rus xalq topishmoqlarining umumiy hamda differensial xususiyatlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va rus topishmoqlarining tipologik mohiyatini aniqlash, ularning shakllanishida turmush tarzi, madaniyat, kasb-kor, marosim va urf-odatlar, tabiiy-geografik muhit hamda etnik-madaniy omillarning o‘rnini ilmiy asoslash;

har ikkala xalq topishmoqlarini janr va tuzilish xususiyatlariga ko‘ra tasniflash, ularning tarixiy va zamonaviy ko‘rinishlari, funksional yo‘nalishlari hamda mazmuniy turlarini aniqlash;

o‘zbek va rus topishmoqlarida ifodalangan madaniy kodlarni (mifomorf, zoomorf, fitomorf, ornitomorf, antropomorf va boshqalar) aniqlash hamda ularning denotativ va konnotativ xususiyatlarini ochib berish;

qiyoslanayotgan tillar topishmoqlari poetikasida qo‘llaniladigan badiiy vositalar (alliteratsiya, anagramma, onomatopeya, metafora, metonimiya, sinekdoxa va boshqalar) ning funksional-semantik rolini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va rus xalq topishmoqlari, ularning tarjima matnlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va rus xalq topishmoqlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanish jarayoni, ularning mifologik asoslari hamda marosimiy-madaniy ildizlari, mavzuiy va obrazlar tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlari, leksik-semantik va sintaktik qurilishi, shuningdek, poetik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasniflash, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, qiyosiy-chog‘ishtirma, kross-madaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

etnik-madaniy omillar, marosimlar, urf-odatlar va e’tiqodiy qarashlarning o‘zbek va rus topishmoqlaridagi janr, obraz, lisoniy-badiiy hamda ta’limiy-kognitiv xususiyatlarga ta’siri qiyosiy-tipologik asosda aniqlanib, ulardagi tabiat, inson, hayvonot va maishiy predmetlar tasvirining umumiy tipologik belgilari, o‘zbek topishmoqlarida milliy turmush, dehqonchilik va hunarmandchilik, rus

topishmoqlarida esa tabiiy-geografik muhit va an’anaviy madaniyat bilan bog‘liq xususiyatlar asoslangan;

o‘zbek va rus topishmoqlarining sodda, murakkab va masala-topishmoq shakllariga xos janriy belgilari, ularning qadimiy mifologik, marosimiy va maishiy qarashlar bilan bog‘liq ildizlari hamda leksik-semantik, morfosintaktik va poetik xususiyatlari dalillangan;

o‘zbek va rus topishmoqlarida mifomorf, zoomorf, fitomorf, ornitomorf, antropomorf hamda anatomik obrazlarning tabiat va hayvonot olamiga munosabat kabi milliy-madaniy mazmuni ochib berilib, ularning denotativ va konnotativ ma’no qatlamlarida tabiat va insonni obrazli ifodalash, antropomorfik hamda metaforik tasvirlash kabi tipologik belgilar, o‘zbek topishmoqlarida milliy turmush, mahalliy tabiat, rus topishmoqlarida esa maishiy hayot va madaniy tasavvurlar bilan bog‘liq farqlovchi belgilar aniqlangan;

topishmoqlar poetikasida alliteratsiya, anagramma, onomatopeya kabi fonostilistik vositalar hamda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi badiiy tasvir vositalarining tabiat, hayvonot olami va inson haqidagi tasavvurlarni ifodalashdagi badiiy-estetik hamda kognitiv funksiyalari qiyosiy ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, xulosalarning qat’iyligi, shuningdek, keltirilgan tahlillarning tasniflash, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, qiyosiy-chog‘ishtirma, kross-madaniy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va rus folklorida topishmoqlarning paydo bo‘lishi, mazmunan taraqqiy etishida shu xalqning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, yashash o‘rni, mehnat sharoiti, dunyoqarashi, e’tiqodiy tushunchalari, marosim va urf-odatlari, tilidagi tabuistik leksika, yashirin va metaforik nutq shakllari muhim ahamiyat kasb etgani asoslangan;

o‘zbek va rus topishmoqlarida o‘xshash metaforik, ramziy obraz va motivlar borligi, ularning badiiy turlarida, aytilish shakllarida yaqinliklar mavjudligi aniqlangan;

o‘zbek va rus topishmoqlarida ramz va badiiy ko‘chim turlarining poetik san’at sifatida namoyon bo‘lishi, ularning strukturaviy va funksional jihatlari ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda chiqarilgan nazariy xulosalar folklorshunoslikda topishmoqlar genezisi va poetikasi haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirib, bir tizimga solishi, turli tizimli tillarda genezis va poetik xususiyatlarga oid tadqiqotlarni nafaqat paremik, balki boshqa janrlar misolida ham olib borishga keng yo‘l ochishi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan mavzuga oid tadqiqotlar yaratishda, maqola va dissertatsiyalarda, shuningdek, ta’lim tizimida topishmoqlar haqida chuqurroq adabiy-nazariy ma’lumotlar berishda, oliy ta’limda folklorshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va

tarjimashunoslik fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va rus xalq topishmoqlarining qiyosiy-tipologik tahlili bilan bog‘liq vazifalarni tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek va rus topishmoqlarining tipologik mohiyati har bir millatning turmush tarzi, madaniyati, kasb-kori, marosim va urf-odatlari, yashash sharoiti, hududi, tabiati, flora va faunasi, totemistik hamda e’tiqodiy qarashlari, etnik-madaniy omillar negizida shakllanganligi va mazkur jihatlar topishmoqlarning badiiy shakli, obrazlar tarkibi, ifoda va ijro uslubi, mavzular olamini ifoda etishdagi ustuvorligiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpog‘iston folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tatbiq etish” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 20-avgustdagi №339/1-son ma’lumotnomasi). Natijada turkiy va boshqa xalq topishmoqlari o‘rtasidagi o‘xshash obrazlar, mushtarak mavzular loyiha bazasini kengaytirgan;

har ikkala xalq topishmoqlari – tarbiyaviy, ayyorlikka xoslangan, sodda yoki murakkab tuzilishli, tavsiflovchi, qofiyasiga qarab javobi topiladigan, yaratilish davriga ko‘ra eski (tarixiy) yoxud yangi (zamonaviy) topishmoqlar, masala-topishmoqlar, naturfaktlar haqidagi hamda meteorologik topishmoqlar kabi turlarda namoyon bo‘lishiga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy muloqot va targ‘ibot ishlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 7-apreldagi №01-03/149-son ma’lumotnomasi). Natijada anjumandagi muhokamalar milliy merosni saqlash va rivojlantirish, ijodiy va ilmiy muhitni boyitish, tafakkurni rivojlantirish, tilga muhabbat uyg‘otishga mustahkam asos bo‘lib xizmat qilgan;

o‘zbek va rus topishmoqlarining madaniy kodlarini tasvirlashga xizmat qilgan *mifomorf, zoomorf, fitomorf, ornitomorf va antropomorf* obrazlar hamda anatomik, raqamli va rangli tasvirlarning denotativ va konnotativ belgilariga xos differensial xususiyatlar bilan bog‘liq ilmiy natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Adabiy jarayon”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 20-martdagi №26-36-964-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlar uchun ishlab chiqilgan materiallar tahlili asosida mavzu mazmunan boyitilgan hamda ijodiy jamoa tomonidan noqardosh xalqlar folkloridagi dunyo manzarasi kengroq yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 2 ta respublika, 7 ta xalqaro konferensiyalarda qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 175 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O‘zbek va rus xalq topishmoqlarining umumiy hamda xususiy belgilari”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tarkib topgan. Ilk fasl *“O‘zbek va rus xalq topishmoqlari tadqiqi sharhi”* deb atalgan.

Tadqiqotimizda rus folklorshunosligida “topishmoq” atamasining ilk bor XVII asr o‘rtalariga oid yozma manbalarda uchrashi hamda bu janrning shakllanish tarixiga doir muhim manbalar tahlil qilingan[12]. Tadqiqotda “Беседы трёх святителей”, “Пчела”, “Цветник”, “Азбуковник” kabi qadimgi to‘plamlarning topishmoqlar bilan mazmuniy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritilgan[13]. M. N. Speranskiy tomonidan bu manbalarda qadimgi hodisa va obyektlarning, ayniqsa, diniy mazmundagi holatlarning topishmoq va javob shaklida izohlanganligi qayd etiladi[14]. “Беседы”dagi ayrim savollarning XIX asrda D. N. Sadovnikov to‘plamida xalq topishmog‘i sifatida nashr etilgani[15], N. V. Kalachov tomonidan “Прописи” asaridagi jumboqlar 1749-yilda 27 ta topishmoq shaklida mukammallashgani haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. F. Buslayev janrni “Стих о Голубиной книге” bilan bog‘lasa-da[16], V. V. Mitrofanova undagi savollarning og‘zaki ijodda qayd etilmagani va mazmunan xalq topishmoqlaridan farq qilishi bilan ajralib turishini ta’kidlagan[17]. Yuqoridagi fikrlar rus topishmoqlarining ilk yozma shakllanish jarayoni, og‘zaki ijod bilan aloqasi va janriy o‘ziga xosligini yoritadi. Biroq dastlabki yozma manbalarning saqlanmaganligi hamda masalaning yetarlicha ilmiy tahlil qilinmaganligi uning qadimiy tarixini to‘liq tiklashni qiyinlashtiradi.

Topishmoqlarni maxsus to‘plam sifatida nashr etish an’anasi XVIII asrda rus folklorshunosi V. A. Levshinning «Загадки, служащие для невинного разделения праздного времени» (1773) asari bilan boshlangan. Keyinchalik M. D. Chulkov «Парнасский щепетильник» haftanomasida hech qanday tahrir va stilizatsiyasiz topishmoqlarni e’lon qilib, ilmiy maqsadni ko‘zlamagan bo‘lsa-da, ularning

[12] Акты исторические, собранные и изданные Археографическою комиссиею, т. IV. – СПб., 1842. – С. 125.
[13] Говоркова О. Н. Русская народная загадка (история собирания и изучения): Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2004. – С. 7.
[14] Сперанский М. Н. Русская народная словесность. Введение в историю русской народной словесности. Устная поэзия повествовательного характера. – М., 1917.
[15] Сперанский М. Н. Ko‘rsatilgan manba.
[16] Буслаев Ф. И. Исторические очерки русской народной словесности и искусства. Т. 2. – СПб., 1861. – С. 18.
[17] Митрофанова В. В. Русские народные загадки. – Л.: Наука, Ленинградское отделение, 1978. – С. 8-9.

dastlabki ilmiy nashrining asoschisi sifatida e’tirof etiladi[18]. XIX asrda I. M. Snegiryovning «Русские в своих пословицах. Рассуждения и исследования об отечественных пословицах и поговорках» (1831–1834) asari topishmoqlarni yig‘ish va ilmiy nashr etish jarayonini yangi bosqichga olib chiqqan[19]. Ko‘rinadiki, bu jarayon topishmoq janrining mustaqil shakllanishi va xalq og‘zaki ijodi tizimidagi o‘rni o‘sishi bilan bog‘liq.

Shuningdek, XIX asr rus folklorida topishmoqlarni to‘plash va o‘rganish jarayonining yangi bosqichi sifatida V. I. Dalning «Пословицы русского народа» to‘plami alohida ahamiyatga ega[20]. Unda faqat og‘zaki an’analarga asoslangan topishmoqlar joy olgan bo‘lib, kitobiy shakllar kiritilmagan. XIX asrning 60-yillarida I. A. Xudyakovning «Великорусские загадки» (1861) va D. N. Sadovnikovning «Загадки русского народа»[21] to‘plamlari nashr etilib, boshqa xalqlar topishmoqlari bilan qiyosiy tahlil imkoniyatini yaratdi. XX asrda topishmoqlarni o‘rganish V. P. Anikin (1957), V. V. Mitrofanova, Y. I. Levin, G. L. Permyakov, T. Y. Yelizarenkova, V. N. Toporov[22] kabi olimlar tomonidan yangi bosqichga ko‘tarildi. V. V. Mitrofanovaning «Русские загадки» monografiyasi va «Паремиологические исследования»[23] (1984) dagi kuzatishlari janrning ilmiy asosda o‘rganilishiga xizmat qildi. O. N. Govorkovaning (2004) dissertatsiyasi bu jarayonning tarixini yoritgan bo‘lsa[24], A. E. Tuninning «Новогреческие загадки в сопоставлении с балканославянскими: семантика и структура» tadqiqoti qiyosiy folklorshunoslikda muhim o‘rin tutadi[25]. Mazkur manbalar asosida rus topishmoqlarining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish ularning boshqa xalqlar folklori bilan umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, topishmoq o‘zbek folklorining qadimiy janrlaridan biridir. XI asrdayoq topishmoq aytish an’anasi keng rivojlangan. N. B. Rabg‘uziyning «Qissasi Rabg‘uziy» asarida keltirilgan «Qamuғ to‘nlar yig‘na birla tikilur, azinlarni o‘rtar, ammo o‘zi yolang qolur»[26] jumlasini tahlil qilgan H. Zarifov ushbu matnda javobi «igna» bo‘lgan «hamma uchun kiyim tikadi, o‘zi esa yalang‘och qoladi» mazmunidagi topishmoq ifodalanganini ta’kidlaydi.[27] «Kodeks kumanikus» turkiy yozma yodgorliklar orasida muhim manba hisoblanadi. Unda 47 ta topishmoq qayd

[18] https://www.culture.ru/materials/187337/zagadochnyi-mir (murojaat sanasi: 31.10.2024).

[19] Снегирев И. М. Русские простонародные праздники и суеверные обряды: Вып. 1–4. – М., 1837–1839. – С. 224; Терещенко А. В. (1806-1865). Быт русского народа. – СПб.: типография Министерства внутренних дел, 1848. – С. 225.

[20] Даль В. И. Пословицы русского народа. Сборник. В 2-т. Том 1. / Вступ. слово М. Шолохова. – 1984. – 10 с.

[21] Худяков И. А. Великорусские загадки / [Соч.] И. А. Худякова. – М.: Тип. Грачева и К°. – 1861. – 10 с.; Садовников Д. Н. Загадки русского народа. Сборник загадок, вопросов, притч и задач. – М.: Современный писатель, 1995. – С. 7–9.

[22] Елизаренкова Т. Я., Топоров В. Н. О ведийской загадке типа brahmodya // Паремиологические исследования. – М., 1984. С. 15.

[23] Митрофанова В. В. Русские загадки. – Л., 1978; Паремиологический сборник. Составитель Г. Л. Пермяков. – М.: Наука, 1978. – 250 с.

[24] Говоркова О. Н. Русская народная загадка (история собирания и изучения): Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2004. – С. 7.

[25] Тунин А. Е. Новогреческие загадки в сопоставлении с балканославянскими: семантика и структура: Автореф. дисс. …канд. филол. наук: 10.02.20. – М., 2012. – 23 с.

[26] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 118.

[27] Зарифов Ҳ. Ҳаммани кийинтиради / Пўлкан шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 91.

etilgan bo‘lib, ularning mazmuni va tarkibi B. Jafarov tomonidan ilmiy asosda tahlil qilingan. Mazkur topishmoqlar jahon folklorshunosligida “kuman topishmoqlari” nomi bilan ma’lum. Ularning janriy xususiyatlari va turkiy folklordagi variantlari ilk bor A. Inon tomonidan qiyosiy o‘rganilgan. To‘plam turkiy topishmoqlarning yozma shaklda saqlangan yirik namunasi sifatida alohida ilmiy qiymatga ega.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘zbek topishmoqlarini yozib olish va nashr etish ishlari ilmiy asosda yoritila boshlangan. Ilk materiallar “Turkiston viloyati gazetasi”da chop etilgan. Shundan so‘ng A. Vasilev, N. P. Ostroumov, H. Zarifov kabi tadqiqotchilarning topishmoqlarni to‘plash va nashr etish ishlari boshlangan[28]. Bu topishmoqlarni to‘plash va yozib olish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Z. Husainovaning “O‘zbek topishmoqlari” (1966) monografiyasi va M. Jo‘rayeva tomonidan mustaqillik davrida olib borilgan tadqiqotlar janrning xalq badiiy tafakkuridagi o‘rni va qadimiylik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslaydi. J. Abdullayev topishmoqlar tilini leksik va semantik jihatdan tahlil qilib, undagi so‘zlarning leksik qatlamlarini mezonlar asosida tasniflaydi. M. Saparniyozova esa topishmoqlarning sintaktik hamda semantik tuzilishini o‘rganar ekan, predikativ munosabatlar, metaforik ma’no qatlamlari va gap qurilishiga xos xususiyatlarni tizimlashtirilgan tarzda yoritadi.[29]

D. Kuliyevaning 2024-yilda himoya qilingan “«Kodeks Kumanikus» topishmoqlari tarjimalarining qiyosiy tahlili va poetikasi” nomli dissertatsiyasi mazkur mavzu doirasidagi tadqiqotlarning zamonaviy bosqichini ifodalaydi. Unda «Kodeks Kumanikus» manbasida uchraydigan topishmoqlar turli tillarga qilingan tarjimalar asosida qiyosiy o‘rganilib, ularning semantik tuzilishi, obrazlilik xususiyatlari va poetik ifodasi tahlil qilingan[30].

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“O‘zbek va rus xalq topishmoqlarining janriy tabiatidagi mushtarakliklar”* deb nomlangan. N. F. Ostolopov “Словарь древней и новой поэзии” maqolasida topishmoqni qisqa, she’riy shakldagi, yashirin ma’noli janr sifatida izohlaydi. Uningcha, topishmoqning asosiy badiiy vositalari — metafora, antiteza, allegoriya va jonlantirishdir[31]. Shu xususiyatlar o‘zbek topishmoqlarida ham kuzatilib, ular ixcham shakl, ramziy obraz va yashirin mazmun uyg‘unligiga asoslanadi[32].

Rus va o‘zbek topishmoqlari genezisi so‘z magiyasi hamda mifologik tafakkur bilan bevosita bog‘liqdir. K. P. Gerd ularni ibtidoiy inson ongining mahsuli va tabiat bilan ruhiy aloqaning ifodasi sifatida talqin qiladi[33]. V. I. Chicherov

---

[28] Жўраева М. Ю. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) ... дис. автореф. 10.00.08 / Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти. – Тошкент, 2017. – Б. 14.

[29] Абдуллаев Ж. А. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: филол. фан. номз. ... дис.автореф. 10.02.02 / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тилшунослик институти. – Тошкент, 1994. – 20 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: филол. фан. номз. ... дис. автореф. 10.02.02 / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти. – Тошкент, 2005. – 31 б.

[30] Kuliyeva D. «Kodeks Kumanikus» topishmoqlari tarjimalarining qiyosiy tahlili va poetikasi: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. – Namangan, 2024. – 146 b.

[31] Остолопов Н. Словарь древней и новой поэзии. – СПб.: Типография Императорской Российской академии. Часть II, 1981. – С. 11.

[32] Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 78.

[33] Герд К. П. К изучению удмуртских загадок. Труды научного общества по изучению Вотского края. Вып. 1928. – С. 125.

topishmoqlarning mehnat faoliyati hamda agrar marosimlar bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi. K. K. Krasheninnikov esa ularni tabiat hodisalarini ramziy-magik til vositasida izohlash shakli sifatida baholaydi.[34]

N. Murodova[35] turkiy xalqlarda so‘z taqiqlari va sirli nutq tizimi topishmoqlarning ilk manbalaridan biri ekanini qayd etadi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, topishmoqlar xalqning animistik, totemistik va mifopoetik tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan. Keyinchalik janr magik va marosimiy funksiyadan o‘yinbop va didaktik vazifaga o‘tib, bolalar auditoriyasida bilim beruvchi estetik vosita sifatida shakllangan.

Shunday qilib, rus va o‘zbek topishmoqlari mifologik dunyoqarash negizida shakllanib, ibtidoiy insonning borliqni ramziy-magik idrok etish vositasi deb bilinadi.

Topishmoqlarda kompozitsiya janrning asosiy badiiy va mantiqiy tizimini belgilaydi. G. L. Permyakov uni uch darajada – lingvistik, mantiqiy-semiotik va realiyaviy – shakllangan tuzilma sifatida izohlaydi[36]. Olimning ta’kidlashicha, topishmoq kompozitsiyasi ixchamlik, ramziy ifoda va shifrlangan ma’noga asoslanadi. Rus folklorshunosi V. P. Anikin mazkur masalaga nazar tashlar ekan, topishmoqlarning tuzilishiga alohida e’tibor qaratgan. U topishmoq kompozitsiyasini inkor – obrazli qism – paradoks – savol kabi elementlar tizimida tahlil etadi[37]: *Красна, да не девка; зелена, да не дубрава. Что это? (морковь).*

N. M. Sokolov esa topishmoqlarda parallelizm va simmetriyaning ustuvorligini qayd etadi: *Летит – молчит, лежит – молчит, умрёт – заревёт (снег).*

O‘zbek xalq topishmoqlarida kompozitsiya xalq tafakkurining ixcham, ammo badiiy jihatdan murakkab ifodasi sifatida shakllangan. Z. Husainova ta’kidlaganidek, topishmoq “sodda, siqiq, predmetga xos belgilar asosida javob talab qiluvchi jumladan iborat bo‘ladi”[38]. M. Saparniyozova esa ularning grammatik, ohang va mazmun jihatidan yaxlitligini qayd etadi: topishmoq oddiy yoki murakkab gaplardan tuzilgan bo‘lib, shakliy jihatdan badiiy butunlikni tashkil etadi[39]. Darhaqiqat, topishmoq kompozitsiyasida ritm, qofiya, turoq, ohang muhim rol o‘ynaydi: *Qarang-qarang qora ot, beli qayqi kichik ot, toshdan qayrilmas, oyoqlari toyilmas (chumoli)* – tarzidagi topishmoq misolida qofiya va ritmik tuzilma topishmoqqa musiqiylik beradi.

Kompozitsion jihatdan topishmoqlar motiv va syujet asosida quriladi. Masalan: *Uy ichida qizil go‘sht (til)* – obrazli topishmoq bo‘lsa, voqeaviy, syujetli topishmoqlar ham mavjud.

O‘zbek topishmoqlarining kompozitsiyasi ritmik tuzilma, badiiy parallelizm, motiv va syujet uyg‘unligi orqali xalq tafakkurining ixcham, ammo chuqur badiiy ifodasini yaratadi.

---

[34] Чичеров В. И. Русское народное творчество. – М.: Издательство московского университета, 1959. – С. 322.
[35] Муродова Н. Табу ва эвфемизмлар // Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 99.
[36] Пермяков Г. Л. От поговорки до сказки. – М., 1970. – С. 8.
[37] Аникин В. П., Круглов Ю. Г. Русское народное поэтическое творчество. Пособие для студентов. – Л.: Просвещение, 1987. – С. 127.
[38] Ҳусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 26.
[39] Сапарниёзова М. Ўзбек халқ топишмоқларида гап бўлаклари тартиби // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. – №3. – Б. 130.

Birinchi bobning uchinchi faslida *“O‘zbek va rus xalq topishmoqlarining mavzu ko‘lami va tasnifi masalalari”* yoritilgan. Tadqiqotda topishmoqlar mavzuiy, janriy va shakliy jihatdan tahlil qilinib, ularning umumiylik va farqlilik xususiyatlari aniqlangan. Xususan, topishmoqlarning tabiat, inson, mehnat, hayvonot va nabotot olami, jamiyat hamda marosim hodisalarini qamrab olishi ko‘rsatib berilgan. Z. Husaynova tahriridagi to‘plamda o‘zbek topishmoqlari 21 an’anaviy va 9 zamonaviy mavzuda, D. Sadovnikov hamda M. Mitrofanova tomonidan esa rus topishmoqlari 32 mavzu asosida tasniflangan.

Topishmoq janrining tasnifi masalasini yoritishda, avvalo, ushbu janrning folklorshunoslikda qaysi adabiy tur doirasida talqin etilishi masalasiga e’tibor qaratildi. Folklorshunoslar topishmoqni paremik tizimga kiruvchi ixcham, obrazli va ramziy mazmunga ega janr sifatida baholaydilar. O‘zbek olimlari M. Jo‘rayev va J. Eshonqulovlar uni maqol bilan bir qatorda “maxsus tur” deb ko‘rsatadilar, B. Sarimsoqov esa topishmoqni paremik tizim doirasida tahlil qiladi[40]. Paremiya deb tilda barqaror bo‘lgan, nutqda sintaktik jihatdan gap shaklida keluvchi, pand-nasihat, ta’limiy mazmunni yetkazish uchun qo‘llanuvchi birikmalarga aytiladi[41]. Demak, topishmoq paremik tizimga kiruvchi ixcham va obrazli janr bo‘lib, dastlab nasriy shaklda yaralib, keyinchalik she’riy tus olgan.

Mashhur fin folkloristi Antti Aarne topishmoq janriga bag‘ishlangan maxsus kitobida “Topishmoq janri dastavval nihoyatda sodda nasriy ko‘rinishga ega bo‘lib, taraqqiy etish jarayonida bir misra ikkinchi misra bilan boyitilib she’riy ko‘rinishga kelgan” degan fikrni bildirgan[42]. I. A. Xudyakov “Великорусские загадки” kitobida topishmoq va maqol janrining uzviy bog‘liqligi haqida quyidagi fikrlarni yozgan: “Epik turlar orasida topishmoq o‘zining ixcham hajmi bilan maqolga yaqin turadi. Ba’zi topishmoqlar maqoldan topishmoqqa o‘tish, ya’ni ham maqol, ham topishmoq xususiyatini ifodalaydi, shuning uchun ularni tasnif qilganda har ikki guruhga kiritish kerak”[43]. Masalan: *“Asaldan shirin, zahardan achchiq” (til va so‘z)*. M. Ribnikova topishmoqning badiiy vositalari – metafora, oksyumoron, paradoks kabi ko‘chimlar orqali estetik ta’sir kuchayishini ko‘rsatadi. M. Melnikov esa zamonaviy topishmoqlarni texnika va ilm-fan bilan bog‘laydi[44] (“Без головы, без языка, а говорит на всех языках”). O‘zbek va qoraqalpoq xalq tez aytishlarini maxsus tadqiq qilgan I. B. Madiyarov “O‘zbek va qoraqalpoq xalq tez aytishlari tipologiyasi” mavzusidagi dissertatsion tadqiqotida tez aytishlarning janrlararo munosabati masalalariga to‘xtalib, topishmoq-tez aytish janrlar tipologiyasini yoritadi[45]. Masalan: *“Bir chuqurda ming chuqur, chuqurni igna cho‘qir”. (Angishvona)*

---

[40] Жўраев М., Эшонқулов Ж. Фольклоршуносликка кириш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Barkamol fayz media, 2007. – Б. 102; Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг жанрлар состави / Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 66.

[41] Паремия.// www.wikipedia.org.

[42] Vergleichende Ratselforschuncren. (F. F. Communications, № 26 – 29.) – Helsinki, 1918.

[43] Худяков И. А. Великорусские загадки. – В кн.: Этнографический сборник, издаваемый Русским географическим обществом. Вып. VI. – СПб., 1864. – С. 14.

[44] Мельников М. Н. Русский детский фольклор. – М.: 1987. – С. 103.

[45] Мадияров И. Б. Ўзбек ва қорақалпоқ халқ тез айтишлари типологияси: Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) ... дисс. 10.00.08 / Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти. – Тошкент, 2021. – Б. 55.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar hamda olib borilgan kuzatishlarimiz asosida topishmoqlarni quyidagicha ilmiy tasniflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

I. Ifoda shakliga koʻra – nasriy va sheʼriy; II. Yosh toifasiga koʻra – kattalar, oʻsmirlar va bolalarga moʻljallangan; III. Grammatik asosdagi topishmoqlar; IV. Chalgʻituvchi topishmoqlar; V. Yaratilish davriga koʻra – qadimiy, zamonaviy va hozirgi davr topishmoqlari; VI. Janriy aloqadorlikka koʻra – topishmoq-tez aytish, topishmoq-maqol va topishmoq-ertak turlari.

Biz ushbu tasnifda, ayniqsa, qadimiy topishmoqlarni yoshlarga tarixiy xotirani yetkazuvchi manba sifatida guruhladik. Bunday topishmoqlarda isteʼmoldan chiqqan soʻz va tushunchalar saqlangan boʻlib, ular xalqning qadimiy turmush tarzi haqida maʼlumot beradi. Masalan: *avaraki — sirgʻa, jubin — javob, tumoq — shapka* kabi arxaik birliklar shular jumlasidandir. *Jummoq qoʻydim, Jubin top, Yumaloq biyning otin top, Tagʻi qoʻydim, tagʻi top, Tolli biyning otin top.(Tarvuz).* Demak, topishmoqlar orqali eskirgan leksik qatlam va milliy madaniy xotirani anglash mumkin.

Ikkinchi bob **“Topishmoqlarning paydo boʻlishida mifologik qarashlar taʼsiri”** deb nomlangan. Mazkur bob uch fasldan iborat boʻlib, unda xalq topishmoqlarining shakllanishida mifologik tasavvurlarning taʼsiri ilmiy tahlil etiladi. Bobning birinchi fasli *“Oʻzbek va rus astronomik hamda taqvimiy topishmoqlarining qiyosiy tadqiqi”* deb yuritilgan. Xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri sanalgan topishmoqlarning shakllanishi hamda tadrijiy taraqqiyotida qadimgi mifologik tasavvurlar muhim oʻrin tutgan. Mifologik tushunchalar — animizm, antropomorfizm, kosmogonik qarashlar va mifopoetik kodlar — xalq topishmoqlarining semantik asosini tashkil etadi. Mazkur tadqiqotda mifologik qarashlar xalq tafakkurining badiiy shakli sifatida talqin qilinib, ular topishmoqlardagi obrazlar tizimi orqali ochib berildi. Bu holatni quyidagi topishmoq misolida yaqqol kuzatish mumkin: *“Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi”.* Tadqiqotda quyosh, oy va yulduzlarga oid topishmoqlarning animistik qarashlar bilan uzviy bogʻliqligi, shuningdek, gastronomik kodlar orqali timsollashtirilishi ilmiy asosda yoritilgan. *Bir parcha patir, Olamga tatir. (Oy)* Yoki: *Kecha tomda bir patir koʻrdim, Erta qarasam – yoʻq. (Oy). “Красный блин на небе висит”* rus xalq topishmogʻida gastronomik kod sifatida “блинчик”(non, kulcha-ruslarning milliy yeguligi) olingan. Bu yerda “blin” rus xalqining milliy taomi sifatida quyoshning shakli va rangi bilan bogʻlangan. Demak, har ikki xalq topishmoqlarida osmon jismlarini milliy madaniyatga xos maishiy predmetlar orqali tasvirlash umumiy mifopoetik tafakkurning namoyoni hisoblanadi.

Quyoshning olov bilan bogʻlanishi ham qadimiy kosmogonik qarashlarning mahsulidir. Arxaik ongda olov va quyosh bir-birining davomchisi sifatida talqin qilingan: «Один костёр весь мир согревает» (Солнце), «Uzoq togʻda oʻt yonar» (Quyosh).

Kosmogonik tasavvurlar taʼsirida quyosh, oy va yulduzlarning antropomorf talqinlari ham shakllangan. Shu tarzda quyosh va oy “aka-uka”, “aka-singil” yoki “opa-singil” maqomida ham talqin qilingan. Bunda ularning bir-birini taʼqib qilishi yoki bir-biridan qochishi taʼkidlanadi: *Сестра к брату в гости идет, а он от сестры прячется.* Quyoshning antropomorflashtirilgan qiyofasini quyidagi oʻzbek

topishmog‘ida ham kuzatish mumkin: *Suvda yotar – suv ichmas, Yurganini odam bilmas. (Quyosh)*

Shuningdek, osmon ko‘pincha *gilam* yoki *chodir* sifatida, yulduzlar esa mayda narsalar – *don, tosh yoki pul*ga o‘xshatilib, boylik va mo‘l-ko‘llik ramzi tarzida talqin etiladi: *“Oyim ko‘rpa berdi, ko‘tarmadim, dadam pul berdi, sanamadim”* (Yer va yulduzlar).

Kosmogonik qarashlar kalendar topishmoqlarida vaqtning koinot tartibi bilan bog‘liq holda tasvirlanishida kuzatiladi. Bunda asosiy kod dunyo daraxti tasviri bilan bog‘liq holda keltiriladi. Dunyo daraxti mifologiyada osmon, yer va vaqt qatlamlarini birlashtiruvchi markaziy timsol sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun daraxt obrazi kalendar tizimining semantik markaziga aylangan. Mazkur mifologik tasavvurning rus va o‘zbek xalq kalendar topishmoqlaridagi ifodasi quyidagi jadvalda qiyosiy yoritilgan.

1-jadval

Rus	**O‘zbek**
Стоит дуб, на дубу двенадцать гнёзд, на каждом гнезде по четыре синицы, у каждой синицы по четырнадцать яиц: Семь беленьких. Да семь черненьких. (Год, месяцы, недели, дни и ночи)	*Bir tup katta terak, Tubi bir, shoxi o‘n ikki, Yaprog‘i uch yuz oltmish, Yaprog‘ining bir tomoni oq, ikkinchi tomoni qora.*[46] *(Yil, 12 oy, kunlar, kecha, kunduz)*

Totemistik qarashlar esa ayrim vaqt birliklarining qush obrazlari orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi. *“Двенадцать орлов, пятьдесят две галки, триста шестьдесят пять скворцов одно яйцо снесли”.* (Месяцы, недели, дни и ночи).

Badiiy ifoda vositalarida milliy tafakkurga xos tafovutlar namoyon bo‘ladi: rus topishmoqlarida ko‘p qatlamli va murakkab tasvir ustun bo‘lsa, o‘zbek topishmoqlarida ixchamlik hamda umumlashtirilgan ifoda yetakchilik qiladi. Shuningdek, obrazlar tizimida etnomadaniy muhit ta’siri sezilib, rus topishmoqlarida “dub”, qush va tuxum, o‘zbek topishmoqlarida esa “terak” hamda “og‘ayni” timsollari faol qo‘llanadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Ornitonimlar haqidagi o‘zbek va rus xalq topishmoqlari tipologiyasi”* deb atalgan. Ushbu bobda o‘zbek va rus xalq topishmoqlarida qush obrazining badiiy-funksional mohiyati hamda topishmoqlar yaratilishida qushlar haqidagi mif va afsonalarning o‘rni tahlil qilinadi. Bunday talqinlarga ayrim qushlarning muayyan sabab bilan odam ko‘rinishidan qush ko‘rinishiga evrilgani haqidagi afsonalar ham zamin yaratganligi ochib berilgan[47]. Ayrim topishmoqlar afsonalar syujeti, obraz va motivlari ta’sirida yaratilganligi haqida xulosalar umumlashtirilgan.

[46] Ўзбек топишмоқлари. Тузувчи, таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи М. Абдураҳимов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – С. 24.

[47] Жўраева М. Ўзбек фольклорида топишмоқ: ўқув қўлланма / М. Жўраева. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 38.

Qushlar haqidagi topishmoqlarda animistik va antropomorf tasavvurlar muhim o‘rin egallaydi. Shu bois ko‘plab topishmoqlarda qushlar inson kabi “gapiruvchi”, “yig‘lovchi”, “kuylovchi” yoki “ogohlantiruvchi” mavjudot sifatida talqin qilinadi. Bu qush obrazlarining xalq e’tiqodlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Qaldirg‘och haqidagi rus va o‘zbek topishmoqlari bir obyektning turlicha semantik talqinini ko‘rsatadi: rus variantida – *“Шитовило, Битовило, По-немецки говорило”* – qushning ovozi va harakati afsonaviy-sirli tusda berilgan. Mazkur obraz xalq orasidagi Nuh to‘foni haqidagi afsona bilan ham bog‘lanadi. Afsonaga ko‘ra, qaldirg‘och insonni ilondan qutqargani uchun ta’qib ostida qolgan. Shu sabab u “o‘z tilida emas, begona tilda gapiradi” degan mifologik tasavvur shakllangan. Bu holat folklorda mifologik motivning poetik kodga aylanganini ko‘rsatadi. O‘zbek variantida – *“Zuv-zuv borag‘ay, tomdan qarag‘ay, cho‘p, loy cho‘qig‘ay, savat to‘qig‘ay”* – u mehnat va baraka timsoli sifatida tasvirlanadi.

Boyo‘g‘li haqidagi topishmoqlarda demonologik tasavvurlar izlari saqlangan. *“Boyning o‘g‘li ko‘kka qarab yig‘laydi” (Boyo‘g‘li)* topishmog‘ida boyo‘g‘lining mungli ovozi qadimiy afsonaviy tasavvurlar bilan bog‘lanib, unda pushaymonlik va qarg‘ish motivlari badiiy talqin etiladi.

Qush obrazlari bilan bog‘liq topishmoqlarda totemistik qarashlar ham kuzatiladi. Totemizmga ko‘ra, ayrim jonivorlar muqaddas kuch yoki urug‘ himoyachisi sifatida tasavvur qilingan. *Летать летаю, Птиц всех забиваю*[48]. *(Орел)*

Quyidagi o‘zbek topishmog‘ida burgutning balandlik bilan bog‘liq xususiyati asosiy semantik markazga aylangan. *Qirdan turib tuxum irg‘itdim. (Burgut).*

Har ikki xalq folklorida burgut qudrat timsoli bo‘lsa-da, rus variantlarida yovvoyi kuch va hukmronlik, o‘zbek variantlarida esa balandlik va kuzatuvchanlik belgisi kuchliroq ifodalanadi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *“Flora va fauna haqidagi o‘zbek va rus xalq topishmoqlari qiyosi”* deb nomlanadi. Ushbu faslda o‘zbek va rus xalq topishmoqlarida nabotot va hayvonot dunyosi obrazlarining badiiy ifodasi, ularning xalqning tabiat haqidagi kuzatuvlari, dunyoqarashi va ekologik tafakkuri bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan. O‘zbek va rus xalq topishmoqlarida daraxt, o‘simlik va mevalar obrazlari qiyosiy-tipologik jihatdan o‘xshash funksiyani bajaradi: ular xalqning flora haqidagi empirik bilimlarini badiiy shaklda ifodalaydi. O‘simliklarning morfologik tuzilishi kosmik model bilan qiyoslanib, daraxt — olam timsoli, meva — hayot manbai sifatida talqin etiladi.[49]

O‘zbek va rus diyorlarida daraxtlarning har xil turlari bor. Ularning turini ajrata olish lozim. Shu maqsadda turli xil daraxtlar haqida yaratilgan topishmoqlar ham alohida o‘rin egallaydi. Daraxtlar haqidagi topishmoqlarning aksariyatida daraxtlarning jonlantirilganini ko‘rish mumkin: *“Весной веселит, Летом холодит,*

[48] Садовников Д. Загадки русского народа. Сборник загадок, вопросов, притч и задач. – М.: Современный писатель, 1995. – Б. 242.

[49] Рустамова Г. Баҳрон қизи. Ўзбек фольклорида дарахтлар образи: генезиси ва бадиий талқинлари: Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) ... дисс. автореф. 10.00.08 / Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти. – Тошкент, 2022. – 34 б.

Осенью питает, Зимой согревает” tarzidagi topishmoqda daraxt xalq turmushida nafaqat tabiiy ne’mat manbai, balki qadimiy mifologik tasavvurlarda hayot daraxti, hosildorlik va tiriklik timsoli sifatida muhim o‘rin egallagan. Shu sababli u folklorda ko‘pincha jonli mavjudot darajasida talqin qilinadi. Topishmoqda daraxtga “quvontirish”, “sovutish”, “boqish”, “isitish” kabi inson faoliyatiga xos harakatlarning yuklanishi jonlantirish san’atining yorqin namunasidir. *«Qishda uxlab yalang‘och, Bahor qo‘yar yashil soch» topishmog‘ida ham* xalq tasavvurida tabiatning o‘zgaruvchan va qayta jonlanuvchi holatini ifodalash uchun qulay poetik obraz yaratilgan. Topishmoqda “uxlash” va “yashil soch qo‘yish” birliklari jonlantirish hamda antropomorfik tasvir vositasi sifatida qo‘llangan.

Hayvonot dunyosiga oid topishmoqlar xalqning hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida talqin etiladi. Xususan, quyon singari hayvon obrazlari rus va o‘zbek xalqlari og‘zaki ijodida turlicha semantik yuklamalarda namoyon bo‘ladi. *“O‘zi yo‘rtiq, labi tirtiq”* kabi metaforik birliklar quyonning tashqi belgilarini xalqona poetik tafakkur asosida ifodalaydi. *“Soy ichida sariq echki”* birikmasida esa quyon boshqa jonivor nomi bilan qiyoslanib, metaforik kodlash yuz beradi. Demak, quyon obrazi har ikki xalq topishmoqlarida tasviriylik, harakat va tabiat bilan uyg‘unlik semantikasini ifodalovchi lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi. Rus topishmoqlarida tulki – yolg‘onchi va makkor obraz sifatida ko‘rilsa, o‘zbek topishmoqlarida u ayyorlik timsoliga aylanadi.

“По песку идёт гора, у горы два горба” (Верблюд) topishmog‘ida metaforik ko‘chirish orqali tuya obraziga ulkanlik va salobat ma’nosi yuklangan. *“Momom ketib borayotir, kulchasi qolib borayotir” kabi o‘zbek xalq topishmog‘ida esa tuyaning nomi tabu asosida yashirilgan. Qadimda o*damlar tuyani ko‘pincha arvoh hayvon deb hisoblagani uchun uning nomini ochiq tilga olmaganlar. Shu sababli mazkur topishmoqda “tuya” so‘zi o‘rniga “momo” so‘zi qo‘llanilgan. Ayniqsa, ilon nomi sir tutilgan va yashirin tilda “arqon”, “ho‘l gavron”, “yog‘li qamchi”, “ola qamchi”, “yog‘li hasip”, “uzun ichak”, “zar kokilli qiz” birikmalari bilan ifoda etilgan. Bu ifodalar xalq topishmoqlarida keng uchraydi.

Umuman, hayvonot, nabotot va hasharotlar haqidagi topishmoqlar har ikki xalqda qadimiy mifologik tasavvurlar asosida shakllanib, tabiatni estetik va ramziy idrok etish, shuningdek, insonda go‘zallikni anglash va unga nisbatan hissiy munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi bob **“O‘zbek va rus xalq topishmoqlari lingvopoetikasi hamda artefakt va naturfaktlar talqini”** deb atalgan. Bu bob uch fasldan iborat. Bobda inson va uning turmush tarziga oid topishmoqlarning badiiy xususiyatlari, rus va o‘zbek topishmoqlarida milliy mentalitetning ifodalanishi hamda ularning lingvopoetik jihatlari tahlil qilinadi.

Uchinchi bobning birinchi fasli *“Inson, uning turmush tarziga oid narsa-buyumlar haqidagi xalq topishmoqlari va ularning badiiyati”* deb nomlanib, ushbu qismda rus va o‘zbek xalq topishmoqlarida somatizmlar asosidagi badiiy-lingvopoetik tizim tahlil etiladi. M. Gadoyeva tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko‘ra, somatizm ishtirokidagi topishmoqlar mazmuniy va struktur jihatdan uch turga

bo‘linadi[50]. Bu tasnif somatizmlar xalq og‘zaki ijodida qadimiy tabu va ramziy fikrlash an’analarining davomchisi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Ishimizda rus va o‘zbek topishmoqlarida inson tana a’zolari bevosita emas, balki metafora, tashbeh, sinekdoxa va giperbola kabi badiiy vositalar orqali ifodalanadi. Bu holat xalq tafakkurining poetik tafakkur darajasini hamda ramziy fikrlashning universalligini yoritadi. Masalan, *“Eshitadi, ko‘rmaydi; ko‘radi, eshitmaydi”* (quloq, ko‘z) yoki *“Bir uyim bor tuynuksiz, ichi to‘la yulduz”* (og‘iz, tish) kabi topishmoqlar xalq nutqidagi ixchamlik va obrazlilikni namoyon etadi.

Xususan, *“Atrofi chakalakzor, o‘rtasi yorug‘ yulduz”, “Ustida ikki darcha, o‘rtasida bir kunda”* kabi misollar somatizmlarning metaforik va ramziy talqinini ochib beradi. Ular inson tanasini kosmik, tabiat yoki maishiy predmetlar bilan qiyoslab, xalq tafakkurining estetik dunyoqarashi va ramzlar tizimini yoritadi. Rus xalq topishmoqlarida ham inson tana a’zolari bevosita nomlanmay, metafora, tashbeh, sinekdoxa va giperbola orqali ifodalanadi, bu esa obrazli tafakkurning universalligini tasdiqlaydi. Masalan, *“Два братца через дорогу живут, а друг друга не видят”* (ko‘zlar) topishmog‘ida sinekdoxa va metafora uyg‘unlashib, ko‘zlar “ikki aka-uka” obrazida beriladi. Yoki *“Стоят два столба, на столбах бочка, на бочке лес, а в лесу дятел”* (oyoq, tana, bosh, soch, til) misolida murakkab metaforik tizim orqali inson tanasi butun bir qurilma sifatida tasvirlanadi.

Mazkur misollar shuni ko‘rsatadiki, rus va o‘zbek topishmoqlarida inson tanasi qismlari ixcham, ko‘p qatlamli obrazlar orqali berilib, metaforik fikrlash va ramziy ifoda har ikki folklor an’anasiga xos umumiy qonuniyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli *“O‘zbek va rus xalq topishmoqlarida milliylik hamda o‘ziga xoslik ifodasi”* deb nomlanib, unda har ikki xalq topishmoqlarida milliy tafakkur, turmush tarzi va tabiat manzaralarining badiiy in’ikos topishi tahlil qilinadi.

Rus topishmog‘idagi *“Солнце – красная девушка, вертушечка, золотая коклюшечка, золотое яблочко, дуб-стародуб с птицей-вертеницей”* misolida quyosh jonlantirilgan mifologik obraz sifatida tasvirlanadi: *“qizil qiz”* – go‘zallik va iliqlik, *“eski eman*” – kuch va abadiylik ramzi sifatida talqin etiladi.

O‘zbek topishmoqlarida esa milliylik turmush an’analari orqali ifodalanadi:

“Oppoq sandiq ochildi, olamga nur sochildi” (quyosh) misolida “sandiq” obrazi xalqning maishiy hayotiga xos buyum sifatida milliy tafakkurni bildiradi. Shuningdek, *“Tom ustida bir anor, hadding bo‘lsa, ushlab ol”* (oy) topishmog‘ida qadimgi totemistik qarashlar, *“Ko‘k ko‘ylakka g‘o‘za yoydim”* (osmon, yulduzlar) misolida esa paxtachilik bilan bog‘liq milliy mehnat timsollari aks etgan. Rus xalq topishmog‘idagi *“Белоствольная красавица, на ветру качается”* (beryoza) tasviri esa “oq qayin”ning ona, Vatan va muqaddaslik timsoli sifatidagi milliy ramz darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. O‘zbek topishmoqlarida bu jihatdan ko‘p

[50] Гадоева М. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): Филол. фан. д-ри (DSc) ...дисс. автореф. 10.00.06 / Бухоро давлат университети. – Бухоро, 2022. – Б. 19.

ko‘zga tashlanadigan obraz terakdir. O‘zbek xalq topishmoqlarining birida u sharqona antroponim Hasan nomi bilan qo‘llanilgan: *Hasan aka tikka turadi, Bolalari chapak chaladi. (Terak, barglari)*

Fasl yakunida o‘zbek va rus topishmoqlarida milliy obrazlar, diniy tasavvurlar (islom va pravoslavlik) hamda badiiy tafakkurning o‘ziga xos qiyosiy ko‘rinishlari ochib beriladi. Rus va o‘zbek xalq topishmoqlarida milliylik hamda o‘ziga xoslik ifodasi ularda qo‘llangan obrazlar orqali yorqin namoyon bo‘lgan.

Uchinchi bobning uchinchi fasli *“O‘zbek va rus xalq topishmoqlari badiiy qurilishi hamda lingvopoetikasi”* deb nomlanib, unda topishmoqlardagi leksik ma’no ko‘chishi, sintaktik qurilish va fonetik-ritmik uyg‘unlikning badiiy-estetik vazifasi qiyosiy jihatdan yoritildi.

Tadqiqot davomida rus va o‘zbek xalq topishmoqlarining badiiy tuzilmasi, obrazlilik darajasi va til poetikasi o‘rganilib, ularning mushtarak va farqli jihatlari aniqlanadi. Har ikkala xalq topishmoqlarida *ramz va metafora* obrazlilikning o‘zagini tashkil qiladi va undagi boshqa badiiy san’atlar tizimida markaziy o‘rinni egallaydi.

Qadimgi insonlar tabiat hodisalarini (shamol, ayoz, qor, tuman va hokazolar kabi) jonli deb tasavvur qilishgani uchun ularni tasvirlashda ko‘pincha *tashxis* (jonlantirish) san’atidan foydalanib, obrazlantirganlar.

Без рук, без ног,
А рисовать умеет. (Мороз)

O‘zbek folklorida: *Qo‘lsiz, oyoqsiz gul solar. (Sovuq, deraza qirovi)* [51]

Rus va o‘zbek xalq topishmoqlarida epitetlarning qo‘llanishida mushtaraklik kuzatiladi. Har ikki namunada epitetlar metaforik tasvir bilan uyg‘unlashib, yashirilgan predmetning rang va anatomik xususiyatlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi: *Костяной порог, а за ним красный говорок. (Язык). O‘ra ichida qizil besuyak go‘sht (Til).*

Mubolag‘a badiiy tasvirning emotsional ta’sirchanligini oshiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Unda obraz ataylab bo‘rttiriladi va umumlashtiriladi: « *Синенька шубенка весь мир покрыла. (Небо)*» yoki «Og‘zi yo‘q, dunyoni yolmab ketar» kabi misollar orqali hodisaning ko‘lami va ta’siri kuchaytiriladi.

Shuni ham aytish kerakki, o‘zbek tilida omonim sanaluvchi “burun” so‘zi ot sifatida qo‘llanilganda ma’nosi ko‘chib, polisemantiklik (ko‘p ma’nolilik) kasb etadi. Bunda u ikkita: a) kishining yuz qismidagi hid biluvchi tana a’zosi; b) biror narsaning bo‘rtib chiqib turgan qismi (masalan, qoyaning burni, kemaning burni kabi) ma’nolarni bildirib keladi. O‘zbek tilida “burun” so‘zi ravish sifatida qo‘llanganda, “avval, ilgari” degan ma’noda payt tushunchasini ifodalab keladi.

Alliteratsiya — bir xil tovushlar takroriga asoslangan badiiy vosita. Shu vosita qo‘llangan topishmoqlar ham mavjud: *“Yuki bo‘lsa yuradi, yuksiz to‘xtaydi. Nima ekan u?” (Osma soat)*.[52] Ushbu topishmoqda “yu” harfiy birikmasi uch o‘rinda takror qo‘llanishi natijasida “tavzi’” (alliteratsiya) san’ati vujudga kelgan.

[51] Топишмоқлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 20.
[52] Ўзбек халқ топишмоқлари, – Б. 331.

Rus va o‘zbek topishmoqlari poetikasida topishmoqlar tuzilishini yasashda ishtirok etuvchi *ichki qofiya va metrik tuzilma* mavjud. Jumladan, quyidagi topishmoq ichki va tashqi qofiyaga egaligi bilan alohida ahamiyatga ega:

Комочек пуха, длинное ухо,
Прыгает ловко, любит морковку. (Заяц)

Qofiyasiga qarab javobini topish mumkin bo‘lgan topishmoqlar ham anchagina. Bunday topishmoqlar ikki yoki undan ortiq misradan tarkib topgan bo‘lib, ularning oxirgi misrasi so‘ngida keltirilgan so‘zga ohangdosh, qofiyadosh so‘zni topish talab qilinadi. Masalan:

До чего огромный рот!
Пасть разинул… (Бегемот)

Bundan tashqari, rus va o‘zbek topishmoqlarida *palindrom* va alliterativ shakllar alohida tahlil qilinadi. Masalan, “kiyik”, “tut”, “alla”, “ko‘k” kabi so‘zlar o‘ngdan chapga ham, chapdan o‘ngga ham bir xil o‘qilib, fonetik go‘zallik va ritmik uyg‘unlik hosil qiladi. Bu hodisa xalq tilining musiqiyligi va tovush madaniyatini aks ettiradi.

M. Saparniyozova tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zbek topishmoqlarida gap bo‘laklarining qat’iy sintaktik tartibi va to‘liqsiz gaplarning ustunligi tilning ixcham, lekin ma’nodorliligini ta’minlaydi[53]. Rus topishmoqlarida esa inversiya, ritmik urg‘u va sintaktik parallelizm badiiy ifoda vositasi sifatida faol qo‘llanadi.

Fasl yakunida rus va o‘zbek topishmoqlarining lingvopoetik tabiatiga xos so‘z soddaligi, ramziy boylik, obrazli tafakkur, fonetik uyg‘unlik, ritmik tuzilma va emotsional ekspressivlik kabi belgilar umumlashtiriladi. Shu orqali har ikki xalq topishmoqlari til va tafakkur uyg‘unligining badiiy shakli, milliy poetik tafakkurning mahsuli sifatida talqin etiladi.

XULOSA

1. Topishmoqlar – xalq og‘zaki ijodining alohida bir janri bo‘lib, ular so‘zlashuv nutqida mantiqiy va tezkor fikrlashni, shuningdek, topqirlikni rivojlantirish funksiyalarini bajaradi. She’riyat tufayli topishmoqlar nutqimizni majoziy, chiroyli va yorqin qiladi.

2. Topishmoqlardan dunyoning manzarasini qayta yaratishda foydalanish mumkin. Ularning tuzilishi, leksikasi, semantikasi va majoziy tizimi, shuningdek, zamonaviy jumboqlarning hududiy tarqalishi e’tiborni tortadigan muammolardan biridir.

3. Dunyoning lingvistik manzarasi va har bir xalq xatti-harakatlarining etnik-madaniy stereotiplari bilan bog‘liq holda an’anaviy topishmoqlar tezaurusining tuzilishini aniqlash; ularni grammatik va semantik tuzilishiga ko‘ra tasniflash; asosiy obrazlari va ularning asosiy belgilarini aniqlash, semantik tuzilishini tavsiflash;

[53] Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. 10.02.02 / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти. – Тошкент, 2005. – Б. 9.

nominatsiyalarining semantikasini keng folklor va madaniy-etnografik kontekstda tahlil qilish dolzarbdir.

4. Topishmoqlarda har bir xalq dunyoqarashi elementlarini aniqlash va izohlash imkoni bor. Topishmoqlar ma’lum bir an’ana uchun yangi tushunchalar va kognitiv makonlarni o‘zlashtira oladi. Zamonaviy rus va o‘zbek topishmoqlarining tuzilishi folklor topishmog‘i uchun ishlab chiqilgan o‘xshash shakllarga ega.

5. O‘zbek va rus topishmoqlarining madaniy kodlarini tasvirlashga xizmat qilgan antropomorf, zoomorf, fitomorf, ornitomorf va mifomorf obrazlar hamda anatomik, raqamli va rangli tasvirlarning denotativ hamda konnotativ belgilarini ajratib o‘rganish lozim. O‘zbek va rus topishmoqlaridagi asosiy madaniy kodlar keng tarqalganligi, ko‘p qo‘llanilishi va turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi asosida tavsiflanadi.

6. Topishmoqlarda anatomik va fiziologik jarayonlarga ham (homila tug‘ilishi, bolaning oziqlanishi va parvarishlanishi, inson hayoti, o‘limi kabilarga) alohida e’tibor beriladi. Topishmoqlarning eng qadimgi namunalarida qarindoshlik atamalarining osmon jismlari, hayvon va o‘simliklar dunyosiga nisbatan goh matriarxal, goh patriarxal davr nuqtayi nazaridan keng qo‘llangani kuzatiladi.

7. Topishmoqlar orasida koinotning (osmon, quyosh, oy, yulduzlar) mifopoetik rasmini taxmin qilishga, ularning butun qismlarini ifodalashga ham diqqat qaratilgan. Shuningdek, topishmoqlarning chorvachilik va ovchilik bilan bog‘liq tipik vaziyatlarni tasvirlaydigan tiplari ham mavjud. Ulardagi asosiy madaniy kodlar cho‘pon, dehqon, ovchi, kulol, duradgor va boshqa kasb-hunar egalarining dunyosi, turmush tarzi, qiziqishlari tasviri bilan bog‘liq.

8. Topishmoqlar tezaurusi muqaddas narsalar olami sifatida osmon, quyosh, oy, ot, tug‘ilish va o‘lim mifologemalarini aks ettiradi. Madaniy kodlarda dunyo daraxti, dunyo o‘qi, ot, qush, ona va boshqalar haqidagi mifologemalar mavjud. Bunda dunyo daraxti vaqt, dunyo o‘qi quyosh va yulduz turkumlari, ot osmon, kosmik jismlar va tabiat, qushlar taqvim tushunchalari, onalar Yer va tabiat hodisalari haqidagi qarashlarni o‘zida aks ettiradi. Yana ularda rus va o‘zbek mifologiyasi qahramonlarining nomlari topishmoqlar denotatorlarining xayoliy nomlari sifatida ishlatiladi.

9. Topishmoqlar poetikasida alliteratsiya, anagramma va onomatopeya (taqlid so‘zlar) tabiat hodisalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, inson harakatlari haqidagi topishmoqlar xususiyatlarini aniqlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Topishmoqlardagi metaforalar aniq ishora orqali taxmin qilishga olib keladi. Ularda yashiringan narsa-hodisalarning ko‘rinishi, xatti-harakati, holati, rangi va miqdoriy xususiyatlari realiyalarni tasavvur qilish orqali aniqlanadi. Topishmoq matnlari qat’iy tuzilgan, ritmik tartibga solingan matnlardir. She’riy topishmoqlarda vazn va qofiyadan foydalaniladi.

10. Topishmoqlarni qiyosiy-tipologik va kompleks yondashuv asosida tadqiq etish ularning badiiy-poetik tabiati, semantik tuzilishi, madaniy kodlari hamda mifologik qatlamlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Statistik tahlil esa o‘zbek va rus topishmoqlarida uchraydigan obrazlarning qo‘llanish darajasi,

semantik guruhlari va milliy-madaniy xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/2025.27.12.Fil.22.04 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТИЛЛАБАЕВА ФЕРУЗАХОН АБДУЛАЗИЗОВНА

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ НАРОДНЫХ ЗАГАДОК

10.00.06 – Сравнительное литературоведение и переводоведение.

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Наманган – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под № B2024.4.PhD/Fil1887.

Докторская диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на официальном сайте Наманганского государственного университета (www.namdu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Мирзаева Салима Райимжановна** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Палимбетов Камалбай Сарсенбаевич** доктор филологических наук, профессор
	Кулиева Дилшода Алижон кизи доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	**Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 г. в _____ часов на заседании Научного совета по присуждению научных степеней PhD.03/2025.27.12.Fil.22.04 при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршах, дом 169. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс: (+99869) 2288502; e-mail: info@namdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршах, дом 169. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс: (+99869) 2288502; e-mail: info@namdu.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.
(протокол реестра рассылки № _____ от «_____»_____2026 года).

В. А. Воситов
Председатель Научного совета по присуждению научных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

И. У. Тожибоев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению научных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), профессор

К. А. Сидиков
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению научных степеней, кандидат филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении, в частности в области фольклористики, типология и парадигматика жанров изучаются на основе сравнительно-системного подхода с учётом их универсальной когнитивной природы, структурных инвариантных моделей и лингвокультурологических особенностей. Вместе с тем в существующих научных исследованиях сравнительно-типологическая природа узбекских и русских народных загадок, общие и дифференциальные черты их поэтических моделей, мифологические основы, лингвокультурологическая специфика и система символических образов не получили комплексного и специального рассмотрения. Особого внимания требует недостаточная изученность историко-генетических истоков народного мышления, поэтической репрезентации национально-культурных концептов, а также когнитивно-прагматического потенциала жанра в узбекских и русских загадках. В связи с этим сравнительно-типологическое исследование узбекских и русских народных загадок обусловлено необходимостью выявления их универсальных, национально-специфических и этнокультурных особенностей.

Историческое развитие сравнительно-типологического изучения фольклорных жанров в мировой науке отражает переход от выявления генетического происхождения сюжетов к всестороннему исследованию типологических, структурных, функциональных и культурных аспектов развития фольклорных жанров. В частности, в круг данных исследований входят и загадки как жанр, в котором находят отражение историческая память народа, его образ жизни, обычаи, традиции и эстетическое мышление. В рамках этих исследований приоритетное значение приобрело изучение способности загадок посредством художественных кодов репрезентировать представления человека о мироздании, природе, жизни и обществе, а также выявление их структурных, когнитивных и лингвокультурных особенностей. С этой точки зрения сравнительное исследование поэтики, семантики и лингвокультурной специфики узбекских и русских народных загадок имеет важное теоретическое и практическое значение не только для фольклористики, но и для развития лингвокультурологии, сопоставительного языкознания, паремиологии и переводоведения.

После обретения независимости в Узбекистане особое внимание стало уделяться всестороннему изучению устного народного творчества, национально-культурных и литературных ценностей, а также более глубокому исследованию природы традиционных и массовых жанров фольклора, особенностей их художественного выражения и изобразительных возможностей. Как отмечалось: «Если мы будем правильно заниматься наукой и образованием, квалифицированные специалисты сами будут развивать все направления».[1] Данная концепция ставит перед узбекской фольклористикой

[1] Из выступления Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на встрече с руководителями высших учебных и научно-исследовательских учреждений, академиками, учеными, молодыми исследователями Национального университета Узбекистана. – Народное слово, 26 мая 2019 г.

ряд актуальных задач, требующих последовательного решения. В соответствии с этими задачами особую значимость приобретает выявление среди талантливой молодёжи перспективных научно-педагогических кадров, способных продолжить развитие фольклористики, а также сбор и публикация образцов узбекского фольклора, в том числе загадок, их сравнительное исследование с фольклорными материалами на различных языках. Наряду с этим изучение фольклорного наследия в сопоставительном аспекте способствует повышению интереса молодёжи к чтению и изучению иностранных языков. Совокупность указанных факторов обусловливает актуальность и необходимость настоящего диссертационного исследования.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № ПФ-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указе Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии „Узбекистан – 2030“», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», а также в других нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением I «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства» развития науки и технологий Республики Узбекистан.

Степень изученности проблемы. В мировой фольклористике проведён ряд научных исследований, посвящённых изучению генезиса, жанровых особенностей и поэтики загадок. В частности, Эдвард Бёрнетт Тейлор (1832–1917) объясняет происхождение загадок в контексте первобытной культуры и мифологического мышления[2]. Британский учёный Джеймс Джордж Фрэзер (1854–1941) анализировал корни фольклорных жанров, включая загадки, в связи с ритуалами и мифологическим мировоззрением[3]. Финский исследователь Антти Аарне (1897–1925) изучал загадки с позиций

[2] Тайлор Э. Б. Первобытная культура / Э. Б. Тайлор; пер. с англ.; предисл. и примеч. А. И. Першица. – Москва: Политиздат, 1989. – С. 36.

[3] Джеймс Джордж Фрэзер. Золотая ветвь: Исследование магии и религии: Т. 1: Пер. с англ. М. Рыклина. — М.: ТЕРРА—Книжный клуб, 2001. —С. 165.

сравнительно-типологического метода и систематизировал их международные типы распространения[4]. Профессор Университета Британской Колумбии (Канада) Элли Кёнгас-Маранда (1932–1982), опираясь на материалы финских народных загадок, предложила классификацию, выделяющую эмоциональные, индивидуальные и информативные типы загадок[5].

В русской фольклористике в исследованиях Ю. М. Лотмана, Ю. М. Мелетинского, В. Н. Топорова, Г. Л. Пермякова, А. Н. Журинского, Т. М. Николаевой, С. Ю. Сендеровича внимание уделено вопросам генезиса загадок, их структуры и семиотики, лингвопоэтических особенностей, лингвистических моделей текстов загадок, основных форм и средств метафорического типа речи, соотношения мифа и загадки, а также лингвокультурологии и типологии текстов загадок.[6] В исследованиях А. Е. Китикова, Н. А. Лавонен, А. Суфиева, Н. О. Шаракшиновой, в свою очередь, освещается вопрос о взаимосвязанности традиций загадывания загадок с образом жизни каждого народа, его мировоззрением, обычаями и принципами художественного восприятия действительности.[7]

Особого внимания заслуживает вклад З. Хусаиновой в области собирания и научного изучения узбекских народных загадок. В 1967 году исследовательница защитила кандидатскую диссертацию, посвящённую основным особенностям узбекских народных загадок, в которой были системно рассмотрены жанровая природа, художественные особенности и тематические разновидности данного фольклорного жанра. Следующее крупное исследование принадлежит М. Джураевой, подробно изучившей исторические основы узбекских народных загадок, процесс их формирования, древние мифологические представления, традиции, связанные с табуированием слов, а также роль метафорической речи в возникновении загадок[8].

---

[4] Antti Aarne. Vergleichende Rätselforschungen. Helsinki. 1918.-P 2.

[5] Кенгэс Маранда Э. Логика загадок. –В Паремиологический сборник: Пословица, загадка (смысл, текст) М.,1978. – С. 251.

[6] Лотман Ю. М. Избранные статьи. – Таллин, 1992. – С. 148; Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. – М., 1976. – С. 13; Топоров В. Н. Святость и святые в русской духовной культуре. Том I. – М., Гнозис; Языки русской культуры. 1995. – С. 7; Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. – М., 1988. – С. 165; Малые формы фольклора. Сборник статей памяти Г. Л. Пермякова. – М., 1995. – С. 134; Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Наука, 1970; Мелетинский Е. М. О литературных архетипах. – М.: Российский государственный университет, 1994; Елизаренкова Т. Я., Топоров В. Н. О ведийской загадке типа brahmodya // Паремиологические исследования. – М., 1984. – С. 14-46; Топоров В. Н. Из наблюдений над загадкой // Исследования в области балто-славянской духовной культуры. Загадка как текст. Т. 1. – М.: Индрик, 1994. – С. 10-117; Левин Ю. И. Семантическая структура загадки // Паремиологический сборник: пословица, загадка (структура, смысл, текст). – М.: Наука, 1978. – С. 282–314; Журинский А. Н. Семантическая структура загадки. – М.: Наука, 1989; Николаева Т. М. Загадка и пословица: социальные функции и грамматика // Исследования в области балто-славянской духовной культуры. Загадка как текст. 1. – М.: Индрик, 1994. – С. 214–225; Сендерович С. Я. Морфология загадки. – М., 2008.

[7] Китиков А. Е. Марийские народные загадки. Йошкар-Ола. 1967.-с 88-130; Левонен Н. А. Карельская народная загадка. Ленинград.”Наука”1997. – С. 44; Шаракшинова Н. О. Бурятский фольклор.-Иркутск. Кн.изд-во. 1959. – С. 110; Шаракшинова Н. О. Загадки. Учеб. пособие.-Иркутск. 1987. – С. 113.

